

QANG' DAVLATI

Otarbaeva Malika Ongarbaevna

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tarix fakulteti 4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12707624>

Annotasiya. Ushbu maqolada Qang' davlati, uning hududlari, Xitoy manbasidagi davlatga oid ma'lumotlar, Qang' davlatining joylashuvi va uning ma'nosi haqida tarixchi olimlarning fikrlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Oqqo'rg'on, Aris daryosi, jabg'u, Davan, Qashqar, Tusa, Siyovush, Chjan Cyan, S.P.Tolstov, Qovunchi madaniyati, Xorazm.

THE STATE OF KANG

Abstract. This article presents the opinions of historians about the state of Kang, its territories, information about the state in Chinese sources, the location of the state of Kang and its meaning.

Key words: Akkurgan, Aris river, jabgu, Davan, Kashkar, Tusa, Siyovush, Zhang Cyan, S.P. Tolstov, Melon culture, Khorezm.

ШТАТ КАН

Аннотация. В статье представлены мнения историков о государстве Кан, его территориях, сведения о государстве в китайских источниках, местонахождении государства Кан и его значении.

Ключевые слова: Аккурган, река Арис, джабгу, Даван, Кашкар, Туса, Сиёвуш, Чжан Цян, С.П. Толстов, дынная культура, Хорезм.

Bilamizki, Osiyo yunon-makedon istilosi va salavkiylar sulolasi hukmronligidan keyin mil. avv. III asr boshida hozirgi Toshkent vohasida va Sirdaryoning o'rta va shimoliy oqimi hududlarida Qang' davlati vujudga kelgan. Bu davlatning etnik tarkibini turli qabila, elatlar tashkil etgan. Unda yetakchi qang'arlardan tashqari katarlar, kamarlar, toharlar, apasshaklar, asiylar va boshqa qabila urug'lar ham yonma-yon istiqomat qilganlar. Mil. av. II-I asrlar Qang' davlatining eng kuchaygan davri edi. Shu davrlarda Qang' bir qator viloyatlarni o'ziga bo'ysundirgan edi. Xitoy solnomalarida bu viloyatlarning 5 ta nomi tilga olinadi. Bular — Susye (Kesh-Shahrisabz), Fumu (Zarafshon vodiysi), Yuni (Toshkent viloyati), Gi (Buxoro vohasi), Yuegyan (Urganch shahri va viloyati).

Mil. avv. II-I asrlarda Orol dengizining shimoliy sharqidagi Yantsay (Hozirgi Qizil O'rda) va Yan yerlari ham qang'arlar tobeligida bo'lgan. Shunday qilib, o'z davrida Qang' davlati O'rta Osiyoda yirik davlatga aylangan edi. Bu davlatning yirik shaharlari sirasiga Aris daryosi sohilidagi O'tror va hozirgi Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani hududida joylashgan Qanqa (Qang'iz) shaharlari kiradi. Bu shaharlar o'sha davr shaharsozligining yuksak namunalari o'zida mujassamlashtirgan. Qang' davlatini boshqarishda podshohning roli va o'rni katta bo'lgan. Shu bilan birga, davlat va jamiyat hayotiga oid ko'plab muhim masalalarni hal etishda urug' va qabila oqsoqollaridan iborat Oliy Maslahat kengashining mavqeyi ham alohida o'rin tutgan. Binobarin, podshoh o'z ichki va tashqi siyosatini yuritishda kengash bilan maslahatlashgan. Viloyat boshliqlari turkiy maqomda jobg'u yoki yobg'ular deb atalganlar. Ular o'z hududlarini boshqarishda bir muncha mustaqillikka ega bo'lib, markaziy hokimiyatga boj to'lab turganlar. Qang' hukmdorlari

mintaqadagi siyosiy vaziyatga ham faol aralashib, undagi muvozanatni saqlash bobida izchil siyosat olib borganlar. Ayniqsa, ular Xitoyga nisbatan mustaqil siyosat yuritgan. Shuning uchun ham Qang' davlati o'z qo'shnilari - Davan, Qashg'ar, Yorkent singari mustaqil hududlarga nisbatan Xitoyning da'vosi va istilochilik yurishlariga keskin qarshi chiqqan va lozim bo'lganda, o'z harbiy kuchlari bilan ularga yordamga kelgan. Mamlakat aholisining asosiy tarkibini turkiy etnoslar tashkil etgan. Ularning ancha qismi o'troq hayot kechirganlar. Aholining ma'lum qismi ko'chmanchilik bilan shug'ullangan. Daryo va soylarga tutash vohalarda dehqonchilik madaniyati rivojlangan. Shaharlarda savdo-sotiq, hunarmandchilik rivoj topgan. Mahalliy hunarmandlar tayyorlagan urush qurollari (qilich, xanjar, oybolta, o'tkir uchli nayzalar va b.), xo'jalik asbob-uskunalariga talab - ehtiyoj katta bo'lgan.

Qoramozor, Qurama va Chotqol tog'larida temirchilik, misgarlik hunarini rivojlantirish uchun kerak miqdordagi mis, temir, singari ma'danlar qazib olingan. Toshkent atrofidagi Oqtepa 1, Oqtepa 2, Choshtepa, Qovunchitepa, shuningdek, O'tror, Sirdaryo havzasida topilgan ko'plab noyob dalillar Qang' davlatida yuksak moddiy va madaniy hayot tarzi mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Qang'aliklar chorvachiligi va yilqichiligi to'g'risida ham alohida fikr aytish mumkin. Xitoyliklarni maftun etgan zotdor, tulpor otlar xuddi mana shu hududda va qo'shni Davan yaylovlarida boqilgan. Xitoy solnomachilari Qang'da chorva mollarining mo'l-ko'lligini, sut-qatiqlarning g'oyatda mazali va to'yimliligini ta'rif etganlar. Qang' davlatining xalqaro karvon savdosidagi mavqeyi ham baland bo'lgan. Bunda Buyuk Ipak yo'li alohida o'rin tutgan. [1;65-66]

Chjan Cyanning yozishicha, Qang' 90.000 kishilik qo'shinga, Cyan Xanshunning yozishicha, 12.000 kishilik qo'shinga ega bo'lgan.

"Avesto"da Qang' (Qangxa tarzida) bir marotaba tilga olingan. Yashtlarning beshinchi bobida, Tusa ismli (ikki gildirakli jang aravasida jang qilgan, eronlik) jangchi Ardvi Suradan muqaddas Qangxadagi jangda, (Turon mamlakati bo'lgan) qorqmas Varsakining avlodlarini yengishda yordam so'raydi. [2; 22-23]

Qang' davlati to'g'risida birmuncha batafsil ma'lumot beruvchi xitoy manbalarida u Qang'uy deb ataladi.[3] Firdavsiyning "Shahnoma" asarida Qang'diz afsonaviy Siyovushning yurti deb ham ataladi.[4;736] Ma'lumki, Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, Siyovush afrig'iylar sulolasining asoschisi bo'lib, ular mil.avv XI asrdan to milodiy X asrgacha Xorazmda hukmronlik qilganlar[5;486]

Qang' davlatining qay yerda joylashgani haqida Xorazm tarixiy bilimdon S.P.Tolstov Chjan Cyanning Qang'uy Alanlar yurtidan 2000 li uzoqlikda joylashgan, degan ma'lumotlarga ko'ra, Qang'uy davlatining markazi Xorazmgina bo'lishi mumkinligi haqida fikr bildiradi Chunki o'sha davrda alanlar Shimoliy Kasbiy bo'ylarida yashagan. [6;21-24].

Boshqa bir Xitoy manbasida Cyan-Xan-Shuda Ansi (Parfiya) shimolda Qang'uy bilan chegaralashgan deb aytiladi. Ushbu fikr ham S.P.Tolstov foydasiga guvohlik beradi. Uningcha, Qang'a qadimgi Xorazmning janubi -g'arbidagi eng chekka tayanch manzilgohi - Qang'aqal'a va uni suv bilan ta'minlagan Qashqadaryoning nomi hisoblanib, Xitoy manbalaridagi Qang'uy, "Avesto"dagi Qang'a va Shohnomadagi Qang'dizning aynan o'zidir. Qang'a davlati konferenciyasida Xorazm siyosiy gegemonlik ro'lini bajargan.

Biz yunon va rim tarixchilarining asarlarida Qang'uy haqida hech narsa uchratmaymiz. S.P.Tolstov fikriga ko'ra yunon-rim tarixchilari Qang' davlatini Xorazm nomi bilan bilishgan.

Qang' va Xorazm nomlari S.P.Tolstov fikricha sinonimlar. Bu fikrning zaif tomoni shundaki, agar Qang' Xorazm bo'lsa, Katta Yuechlar Qang'dan janubda bo'lmay qoladi, ikkinchidan Xorazm bu davrda chorvachilik emas, balki dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlangan hudud hisoblangan.

Litvinskiy qang'uylarning asosiy manzilgohlari Sirdaryo bo'ylab joylashgan. Qang'uy hukmdorlarining qarorgohi Toshkent yaqinida (Qanha) bo'lganligi sababli, Qang'uyning markazi ham Sirdaryoning o'rta o'quv oqimi bo'lgan degan fikrni ilgari suradi.[7].Arxeologlar Toshkent viloyatidagi Qovunchi madaniyatini Qang'uy madaniyati deb hisoblamogda. Ushbu madaniyat mahalliy ildizlarga ega.

I.Markvard Qang'uy Yaksart bo'ylab yashovchi sak qabilalariga to'g'ri keladi degan fikrini bildiradi. I.Gershovich Toshkent viloyatidan to Orolgacha bo'lgan hududlarda turlar va xomavarga sak qabilalari yashagan degan fikr bildirgan edi. V.VGrigoryev Toshkent viloyatida saka-tigraxaudalar yashagan edi deb hisoblaydi.[8].

Yu.F.Buryakovning fikriga ko'ra, Yuyni (Toshkent vohasi) Qang'uy davlati tarkibiga dastlab kichik mulk maqomida kirib, keyinchalik uning asosiy negizini tashkil etadi. [9].

Tarixchi olim K. Shoniyozovning yozishicha Qang' davlati Sirdaryoning o'rta oqimlarida yashovchi sak qabilalarining Salavkiylar sulolasi bilan uzluksiz ravishda olib borilgan kurashlar natijasida taxminan mil.avvalgi III asr boshida vujudga kelgan. Bu davlat Sirdaroning o'rta oqimida yashovchi tub ega erli aholisini va bir nechta kuchmanchi va yarim kuchmanchi qabilalarni birlashtirgan. [10].Uning fikriga ko'ra, Qang davlati Yunon-baktriya-Baktriya, Parfiya davlatlari bilan shimolda yashovchi kuchmanchi qabilalar bilan o'rnatgan aloqalari natijasida miloddan avvalgi II-II asrlarda Markaziy Osiyoda yirik va kuchli davlatga aylanadi Shu davrga kelib Qang' siyosiy birlashmasi Sog'diyona hamda Xorazmda o'z hukmronligini o'rnatadi. Bu davlatning asosiy markazi Sirdaryo o'rta oqimida joylashgan. Mil.avv II asr boshlarida ularning yerlari bir muncha kengayib, sharqdan Farg'ona vodiysi, Shimoliy-sharqdan Usun, yuyechji qabilalari bilan chegaralashgan. Shimoliy-g'arbda Qang' davlati yerlari Sarisuv yerlari, g'arbda Sirdaryogacha borgan.

Qang' davlati muammosini aniqlashda " Ot mingan chavandoz " tasviri tushirilgan o'sha davr tangalari muhim ahamiyatga ega Ma'lumki, bunday tangalar qadimgi Xorazm va unga tutash hududlarda topilgan. S.P.Tolstov fikriga ko'ra Ot minggan chavandoz bu Xudo sifatida ilohiylashtirilgan Siyovush tasviri. Firdavsiyning "Shohnoma " kitobiga ko'ra, Siyovush o'z qahramonlik ishlarini Qang'a shahrida qilgan. Siyovush esa "Avesto"dagi Imma timsoli hisoblanadi. Shulardan kelib chiqib, S.P. Tolstov Qang'a bu Xorazm deb yana bir marta xulosa qiladi.

Qang so'zining ma'nosi, uning kelib chiqishi haqida olimlar orasida turlicha fikrlar mavjud Markvartning fikriga ko'ra, qang' ikki so'zdan olingan, qan (daryo) va ar - kishini bildiruvchi so'zlardan kelib chiqqan. Demakki, "qang'ar" Qang' daryosidan chiqqan kishilar degan ma'noni bildiradi ya'ni uni daryo nomi bilan bog'laydi.. Pulleyblink fikricha qang'a toxar tilidagi tosh so'zidan olingan. Klashtorniy esa Qang' (daryoning nomi) - ar (kishi) ya'ni Qang' daryosida yashovchi kishilar degan ma'noni bildiradi degan fikrni bildiradi. [11;62]

"Qang'" termini S.P.Tolstov hind-yevropa tilidagi " kanal", "kanava" so'zlari bilan bog'liq deb hisoblaydi, shundan kelib chiqib, Qang'ni "havza bo'yi" dagi yerlar degan ma'noni bildiradi. O'rta asrlardagi qang'lilar "qang'" nomi bilan bog'liq ekanligi ham e'tirof etiladi.

Litvinskiy qanla eron-xotan tilidagi "kanda" so'zidan olingan va "charm kiyimli kishilar" degan ma'noni bildiradi deb yozadi.

Shoniyo'zov "qanh" qan (qang') -daryo, katta suv "ha" - ko'pchilikni anglatadigan demak, "qanha" bu "daryo bo'yida yashovchilar" degan fikrni bildiradi.

B.I.Vaynberg fikricha, Qang'uy nomi toponim, ya'ni joy nomi Qanha, Qang' nomlari Sirdaryoning quyi oqimida paydo bo'ladigan havzaning nomi. Qadimgi Sirdaryo, Sarisuv va Chu daryolari bir vaqtlar hozirgi Daryolik ornida bo'lgan Vorukasha ko'lga qo'shilgan. Ko'l aslida qadimda Turon poytaxti Qang' shahriga to'plangan. Uning nomidan Qang daryosining nomi olingan.[12:197]

Afsonada aytilishicha, "qang'li" turk tilida arava degan ma'noni anglatadi. Qang'uyalar zoroastrizm dinidan bo'lgan xudolardan Farn xudosiga sig'ingan. Xudo hukmdorlarning panohi va qo'riqlovchisi, shuningdek uy, oila, ahillikni saqlovchi xudo hisoblangan. Ushbu Xudo qo'y ko'rinishida deb qabul qilingan. Shu sababli, o'sha davrda dastagida qo'y ko'rinishi bo'lgan sopol idishlar ko'plab paydo uchraydi.

I-II asr o'rtalarida Qang' davlati zaiflasha boshladi. Qang' davlatidan birinchi bo'lib Xorazm ajralib chiqdi.

Milodiy V asr o'rtalariga kelib qang'arlar yeridagi o'troq va qisman o'troq -aholi O'rta Osiyoda yangidan tashkil topgan Yeftalitlar davlatiga tobe boladilar.[13:88-89].

Yakun sifatida shuni aytish joizki, Qang' davlati bo'yicha ko'plab fikrlar mavjud. Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qang' davlati mil.avv III asrda Sirdaryoning o'rta oqimida paydo bo'lgan va o'z davrining qudratli mamlakati bo'lgan davlatdir. Qang' so'zining ma'nosini kelsak, ko'pchilik tarixchi olimlarimiz bergan ma'lumotlariga tayanib Qang' so'zi "daryo bo'yida yashovchilar", "daryo bo'yidagi kishilar" ma'nosini anglatadi degan fikrga kelishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Q.Usmanov, M. Sodiqov, S.Burxonova. "O'zbekiston tarixi". - Toshkent: "IQTISOD MOLIYA", 2006.
2. Исхоков М. «Авесто». Яшт китоби. – Т., 2001.
3. Бичурин Собрание сведений о народах
4. Фирдавсий А. Шохнома. Т.1. / Форс тилидан Ш.Шомухамедов таржимаси. – Т., 1971.
5. Бируни. Памятники минувших поколений. / Избр. Произв. Т.1. / Пер. М.А.Салье. – Т., 1957.
6. Толстов С.П. Древний Хорезм. М., 1948
7. Литвинский Б.А. Джунский могильник и некоторые аспекты кангюйской проблемы. // СА. 1967. №2.
8. Григорьев В.В. О скифском народе саках. – М., 1871.
9. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Т., 1982.
10. Шониёзов К. Қанғ давлати ва қанғлилар. – Т.,1990
11. Кляшторный С.Г. Кангюйская этно-топонимика в орхонских текстах. // СЭ. 1951. №3. С.62.

12. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. М., 1999
13. R.H.Murtazaeva "O‘zbekiston tarixi": Toshkent. 2005